



MA'NAVIY - MA'RIFIY TADBIRLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Bakirov Feruz

Shahrisabz pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Muallif mazkur maqolada mafkuraviy tahdid va axborot xurujlari ko'payib borayotgani, odamlar ongi va qalbini egallash yo'lidagi kurash jarayonlari kuchaygan bir sharoitda yoshlarning ma'naviy kamoloti uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni beqiyos ekanligi haqida fikr yuritgan.

Kalit so'zlar: ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot mafkuraviy tahdid axborot xurujlari, ma'naviy tadbir

Annotatsiya: В данной статье автор комментирует важность духовно-просветительской деятельности для духовного развития молодежи в условиях возрастания идеологических угроз и информационных атак, активизации борьбы за захват умов и сердец людей.

Ключевые слова: образовательно-идеологическая пропаганда, идеологическая угроза, информационные атаки, нравственное событие.

Abstract: In this article, the author commented on the importance of spiritual and educational activities for the spiritual development of young people in the context of



increasing ideological threats and informational attacks, intensification of the struggle to capture people's minds and hearts.

Key words: educational and ideological propaganda, ideological threat, information attacks, moral event

Ma'naviy - ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot ishlari hech qachon hozirgidek dolzarb vazifaga aylanmagan. Ma'naviy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lgani, mafkuraviy tahdid va axborot xurujlari ko'payib borayotgani, odamlar ongi va qalbini egallash yo'lidagi kurash jarayonlari kuchaygani uchun hayotning barcha jabhalari, ishlab chiqarishning hamma sohalari, aholining hamma qatlamlari orasida ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy sohada jadal ishlarni amalga oshirish targ'ibotchi oldidagi eng muhim vazifa hisoblanadi.

Shuning uchun ham ma'naviy - ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot ishlari qanday dastur va yo'nalish, qaysi ko'rsatma va qo'llanma, qanaqa reja asosida, qay saviyada, kimlar tarafidan olib borilayotgani g'oyat muhim masala bo'lib turibdi. Yoshlar qalbida yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda, ularda milliy ong va g'ururni uyg'otishda, Vatan, millat va istiqloq taqdiri uchun faol kurashchi fuqarolarni tarbiyalab, voyaga etkazishda muzey, teatr va kutubxonalar, bugungi kunda axborot resurs markazlarining alohida o'rni bor. Bu kabi muassasalar mustaqil Respublikamiz fuqarolari ma'naviy dunyosini boyitish, ularni go'zal narsalarning hammasidan bahramand qilish, kishilar qalbiga tezroq yo'l topish, estetik hissiyotiga kuchli ta'sir qilish, hayotiy voqea-hodisalarni chuqur mushohada etishga da'vat etish kabi ajoyib xususiyatlarga ega. Shuning uchun pedagog- o'qituvchilar o'z faoliyatida mazkur muassasalarning yoshlarni yuksak ma'naviy-ahloqiy ruhda tarbiyalashdagi badiiy ta'sir etishdek vositachilik xususiyatidan imkoni boricha kengroq foydalanishlari muhim ahamiyatga ega.



Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasini yaratish eng muhim vazifalardan biridir. Ma'naviy va ma'rifiy ishlar yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlarning muayyan majmui bag'rikenglik, insonparvarlik g'oyalari asosida tayyorlanib, talabachilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, o'zga millat va din vakillariga hurmat uyg'otish ruhida o'tkazilishi muhimdir.

Har bir tadbirdan ko'zlangan maqsad bo'ladi. Ana shu maqsadga erishilgani yoki erishilmagani uning natijadorlik darajasini belgilab beradi. Agar tadbirdan so'ng ma'lum bir muddat davomida maqsadga erishilsa, demak, tadbir o'z samarasini bergan bo'ladi. Shuning uchun har bir tadbirni o'tkazishda tadbir samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladigan vositalarga katta e'tibor berish kerak. Tadbir samaradorligining asosiy mezonlari quyidagilar:

Tadbir mavzusining dolzarbligi – tadbirning nega, nima uchun aynan shu mavzuda, shu vaqtda shu qatnashchilar tarkibi bilan o'tkazilishi asoslangan bo'lishi zarur. Tadbir mavzusining dolzarbligi bugungi kunda O'zbekistonni rivojlantirishning "Harakatlar strategiyasi" davlat dasturi, Prezidentning besh tashabbusi doirasida amalga oshirilishi bilan ahamiyatlidir.

Mavzu nomi – qisqa, jarangli, e'tiborni tortadigan bo'lishi, qatnashchilarning yoshi, kasbi, manfaatlariga, hududiy xususiyatlarga mos ma'naviy –ma'rifiy muammolardan birini hal etishga qaratilishi kerak.

Maqsadning ifodalanishi – tadbirning maqsadi qatnashchilar bilib olishi kerak bo'lgan asosiy fikrlar tezis shaklida aniq yozilgan bo'lishi kerak. Tadbir maqsadi aks ettirilgan shiorlar, havolalar slaydlarda, tadbir bannerlarida aks ettirilishi kerak.

Tayyorgarlik ko'rish muddati - tadbir mavzusi va o'tkazilish tartibi bir hafta oldin barcha qatnashchilarga elon qilinishi, tashkilotchilar va ishtirokchilar tadbir uchun zarur bo'lgan vositalarni, chiqishlarni tayyorlashlari kerak.



Tadbir senariysi - tadbir senariysi bir oy oldin tuzilib, mas'ullar bilan kelishilgan holda senariyda so'zga chiquvchilarni va savol –javoblar uchun vaqtni aniqlaydilar. Tadbir necha qismdan iborat bo'lishi, nazariy va badiiy qism qanday tashkil etilishi kelishib olinadi.

Tadbirning qiziqarliligi - qatnashchilarni toliqtirmaslik, ularni diqqatini jalb qilib faollashtirib turish, tomoshabinlarni e'tiborini tortadigan usul va vositalardan keng foydalanish kerak.

Auditoriya – Tashkilotchilar bilan qatnashchilar orasidagi muloqot, o'zaro murojaat uchun qulay, samimiy muhit ta'minlanishi, qatnashchilarning tadbir mavzuiga tayyorlanib kelishlari lozim.

Ko'rgazmali vositalar – Har bir mavzu bo'yicha kamida uchta ko'rgazmali vositadan foydalanilishi kerak. Ko'rgazmali vositalar tadbirni ma'no mazmunini yoritishda yordam beradi va tasirchanligi va samaradorligini oshiradi. Ko'rgazmalar yorqin, e'tiborni tortadigan, tadbir mazmun mohiyatini o'zida mukammal aks ettirishi tadbirni mazmunli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Erishilgan natija – qatnashchilardan ushbu tadbirdan qanday bilim va taassurot olganligi haqida so'rash, olgan yangi bilimlarini qachon, qanday vaziyatlarda qo'llashni aytib bera olishi kerak. Natija tinglovchilarning foizi, ulardan olingan to'g'ri va noto'g'ri javoblar sonidan kelib chiqib baholanadi. Ishtirokchilarning tadbirdan katta taassurot olishi va uni amaliyotda qo'llashi tadbirni natijaga erishganidan dalolat beradi.

Hujjatlashtirish – tadbirning bayonida: maqsad, tezislar, aytilgan fikr- mulohazalar, berilgan savol, olingan javoblar, yutuq va kamchiliklar, xulosa, tavsiyalar yozilib, imzolanib, saqlanadi.

Tadbir ushbu mezonlar orqali baholanadi. Berilgan baholar orqali tadbirning samaradorligi aniqlanadi.



Ma'naviy – ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- barcha bosqichdagi ta'lim muassasalarida ma'naviy – ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish;
- ma'naviy – ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishning moliyaviy manbalarini ta'lim muassasalarining yillik xarajatlari ro'yxatida aniq belgilash;
- ta'lim muassasalarini ma'naviy – ma'rifiy adabiyotlar, targ'ibot materiyallari, multimediya mahsulotlari bilan ta'minlash;
- ma'naviy – ma'rifiy ishlarga mas'ul raxbar va xodimlarning moddiy va ma'naviy mavqeini mustahkamlash;
- oliy ta'lim muassasalari yoshlar bilan ishlash masalalari bo'yicha prorektorlarini mas'uliyatini oshirish;
- oliy ta'lim muassasalaridagi “Ma'naviyat va ma'rifat” bo'limlarining Nizomini takomillashtirish va uning asosida samarali ishlarni yo'lga qo'yish;
- markaziy va hududiy davlat hamda nodavlat ommaviy axborot vositalari raxbarlari, mas'ul xodimlarining ma'naviy – mafkuraviy bilim darajasi, siyosiy savodxonligiga alohida e'tibor qaratish.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ma'naviy – ma'rifiy ishlarni kuchaytirish eng dolzarb vazifalardan biridir. Chunki, ular Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi uchun xizmat qiluvchi tushunchalardir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy- ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” PQ-3160-son Qarori. 2017 yil 28 iyul.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”PQ-3775-son Qarori. 2018 yil 5 iyun.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim –tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora tadbirlari to‘g‘risida” 2018 yil 14- avgustdagi PQ-3907-son Qarori.
4. “Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 736-son Qarori. 2018 yil 17 sentabr.
5. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining 1059-son Qarori.2019 yil 31 dekabr
6. Musurmonova O. Talabalarining ma’naviy madaniyatini rivojlantirish. –T.: Fan. 1993.
7. To‘rayev Sh. Ma’naviy- ma’rifiy ishlar va uni tashkil qilish metodikasi. - T.; “Paradigma”. 2017y.
8. Quronov M. va boshqalar. Tadbir samaradorligining o‘n sharti.- T.: «Istiqlol», 2006